



AYOLLAR JINOYATCHILIGINI OLDINI OLISHNING ILMIY, HUQUQIY VA AMALIY TAHLILI

Qo'chqorov Sadriddin Sherzod o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi
faoliyati 2-o'quv kursi kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20432328>

Annotatsiya: Mazkur maqolada ayollar jinoyatchiligining ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik sabablari kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ayollar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning asosiy turlari, ularning jamiyatdagi o'rni va oilaviy muhit bilan uzviy bog'liqligi ilmiy jihatdan o'rganildi. Shuningdek, xorij tajribalari asosida profilaktika mexanizmlari ishlab chiqilib, sohaga oid amaliy takliflar beriladi. **Kalit so'zlar:** Ayollar jinoyatchiligi, oila, profilaktika, kriminologiya, ijtimoiy omillar, huquqiy tahlil.

SCIENTIFIC, LEGAL, AND PRACTICAL ANALYSIS OF THE PREVENTION OF FEMALE CRIMINALITY

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of female criminality and proposes preventive mechanisms based on international practices. The research comprehensively analyzes the main types of crimes committed by women, as well as their connection with the family environment, social status, and living conditions.

Keywords: Female crime, prevention, family, criminology, social factors, legal analysis.

НАУЧНЫЙ, ПРАВОВОЙ И ПРАКТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ ЖЕНСКОЙ ПРЕСТУПНОСТИ

Contact: 99 826 99 56





Аннотация: В статье проводится комплексный анализ причин женской преступности и предлагаются меры профилактики. В ходе исследования подробно рассматриваются основные виды преступлений, совершаемых женщинами, их взаимосвязь с семейной средой, уровнем жизни и социальным положением в обществе.

Ключевые слова: Женская преступность, профилактика, семья, криминология, социальные факторы, правовой анализ.

1. Ayollar jinoyatchiligining kriminologik va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari

Bugungi kunda ayollar jinoyatchiligi muammosi global xarakter kasb etib, uning osishi jamiyat barqarorligiga salbiy tasir korsatmoqda. Ayollar jinoyatchiligi jamiyatning eng kichik va eng muhim bogini bolgan oila institutiga rahna soluvchi hamda uning qadriyatlarini yemirovchi ijtimoiy xavfli hodisalardan biridir. Shu bois ushbu muammoni chuqur ilmiy asosda o'rganish va tahlil qilish kriminologiya fani oldidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi [1].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayollarda jinoyatchilik ko'pincha emotsional, oilaviy va ijtimoiy ta'sirlar bilan chambarchas bog'liq. Yetuklik davri, ya'ni taxminan 18-35 yoshlar oraliq bosqichi shaxsning ijtimoiy-psixologik barqarorligi shakllanadigan davr bo'lib, shu davrda sodir bo'ladigan jinoyatlar ko'pincha shaxsiy motivlar, ruhiy holat va ijtimoiy muhit bosimi ostida yuzaga keladi [2]. Sifat xususiyatlari masalasiga kelsak, kriminologik statistika ayollar tomonidan tamagirlik niyatida va zo'rlik ishlatib sodir etilgan jinoyatlar, shuningdek, boshqa turdagi huquqbuzarliklarning o'zaro nisbati erkaklar o'rtasida yuzaga keladigan kriminal vaziyatdan ancha farq qilishini ko'rsatmoqda.

Ayollar jinoyatchiligi jamiyatda ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik omillar ta'sirida shakllanadigan o'ta murakkab hodisadir. Tarixan jinoyat va





huquqbuzarliklar ko'proq erkaklar bilan bog'lab kelingan bo'lsa-da, so'nggi yillarda xotin-qizlar orasida ham huquqbuzarlik sodir etish holatlari ortib borayotgani kuzatilmoqda. Bu holat mazkur masalani chuqurroq o'rganishni va profilaktik tadbirlarga jiddiy e'tibor qaratishni talab qiladi.

2. Ayollar jinoyatchiligining kelib chiqish sabablari va xorij tajribasi

Avvalo, ayollar jinoyatchiligining kelib chiqish sabablari turlicha bo'lib, kriminologiyada ular bir necha yirik guruhlariga ajratiladi. Eng asosiy omillardan biri iqtisodiy qiyinchiliklar hisoblanadi. Ishsizlik, kambag'allik, moddiy yetishmovchilik kabi omillar ayollarni noqonuniy yo'llar orqali daromad topishga undashi mumkin. Xususan, o'g'irlik, firibgarlik yoki noqonuniy tijorat bilan shug'ullanish holatlari shular jumlasidandir. Ayrim hollarda ayollar o'z farzandlarini boqish yoki oilasini moddiy ta'minlash maqsadida og'ir ijtimoiy vaziyat bosimi ostida jinoyatga qo'l uradilar [3].

Ikkinchi muhim omil – ijtimoiy muhit va oilaviy sharoitdir. Nosog'lom oila muhiti, maishiy zo'ravonlik, e'tiborsizlik yoki tarbiyadagi bo'shliqlar ayollarning ruhiy holatiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, bolalik davrida turli shakldagi zo'ravonlikka duch kelgan yoki mehr-muhabbatdan mahrum bo'lgan qizlar kelajakda huquqbuzarlik sodir etishga ko'proq moyil bo'lishi ilmiy manbalarda o'z tasdig'ini topgan. Shu bilan birga, kriminogen vaziyati yuqori bo'lgan hududda yashash ham inson xulq-atvoriga va qadriyatlar tizimiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Psixologik omillar ham mazkur jarayonda muhim ro'l o'ynaydi. Stress, depressiya, davomiy ruhiy bosim yoki kuchli hissiy holatlar (affekt) ba'zan ayollarni o'z xatti-harakatlarini boshqara olmaslik darajasiga olib keladi. Ayollar jinoyatchiligining o'ziga xos xususiyati shundaki, ularning sodir etgan jinoyat turlari ko'pincha erkaklarnikidan jiddiy farq qiladi. Kriminologik tadqiqotlarga ko'ra, ayollar odatda shaxsga qarshi o'ta og'ir zo'ravonlikka kamroq murojaat qiladi,





aksincha, iqtisodiy jinoyatlar, firibgarlik, hujjatlarni soxtalashtirish yoki giyohvandlik vositalari savdosi bilan bog'liq huquqbuzarliklarda ko'proq uchraydi [4].

Mazkur masala bo'yicha xalqaro tajriba va huquqshunos olimlarning ilmiy qarashlarini tahlil qiladigan bo'lsak, C. Lombroso, E. Durkheim va F. Adler kabi yirik sotsiolog va kriminologlar ayollar jinoyatchiligini turli jihatdan organib, uning asosiy sabablari aynan ijtimoiy muhit hamda iqtisodiy tengsizlik bilan uzviy bogliq ekanini takidlaganlar. Rivojlangan xorijiy davlatlar, xususan, AQSH, Germaniya va Yaponiya kriminologik tajribasi shuni korsatadiki, ayollar jinoyatchiligini kamaytirishda faqatgina jazo choralari emas, balki ijtimoiy yordam, psixologik qo'llab-quvvatlash va profilaktika institutlari eng muhim rol oynaydi [5].

3. Ayollar jinoyatchiligini oldini olish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar

Jamiyatda ayollar jinoyatchiligini qisqartirish va uning oldini olish uchun faqatgina jazo mexanizmlari yetarli emas, balki tizimli va kompleks chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish zarur. Eng avvalo, xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish, ularni doimiy ish o'rinlari bilan taminlash, talim olish hamda kasb-hunar egallash imkoniyatlarini yanada kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, oilaviy muhitni sog'lomlashtirish, turmushdagi zo'ravonlik qurboniga aylangan ayollar huquqlarini himoya qilish va ularga ixtisoslashtirilgan psixologik yordam ko'rsatish xizmatlarini rivojlantirish profilaktika jarayonida ulkan o'rin tutadi.

Milliy huquqshunos va kriminolog olimlarning tadqiqotlarida ham ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, kriminolog olim Sh.M. Xodjayev ayollar jinoyatchiligini kamaytirishda profilaktika tizimi muhim ekanini takidlab, "ayollar jinoyatchiligining oldini olish uchun kompleks profilaktika chora-tadbirlari





ishlab chiqilishi zarur"ligini qayd etadi. Tadqiqotchilar S.Q. Samatov va Sh.Z. Narziyevlarning fikricha, ayollar ortasida retsidiv (takroriy) jinoyatchilikning oldini olishda zamonaviy xalqaro tajribalarni milliy tizimga to'g'ri moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, yosh olim F.F. Sadullayeva ta'kidlaganidek, xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish samaradorligini oshirish bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, ushbu integratsiyalashgan yondashuv O'zbekiston Respublikasining huquq tizimida ayollar jinoyatchiligini oldini olish borasidagi yondashuvlar muvozanatini ta'minlaydi. Ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik qo'llab-quvvatlash institutlarining birgalikdagi faoliyati xotin-qizlar tomonidan turli jinoyatlar sodir etilishining oldini olishda eng real huquqiy va amaliy kafolat bolib xizmat qiladi.

REFERENCES:

1. Xodjayev Sh. M. Ayollar jinoyatchiligini oldini olishning kriminologik jihatlari // Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy ishlari. – Toshkent, 2023. – B. 45-52.
2. Samatov S. Q., Narziyev Sh. Z. Ayollar o'rtasida retsidiv jinoyatchilikni oldini olish muammolari // O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent, 2022. – B. 112-118.
3. Sadullayeva F. F. Xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi masalalari // Ilmiy tadqiqotlar jurnali. – Toshkent, 2023. – № 4. – B. 77-83.
4. Usmonova K. K. Ayollar jinoyatchiligini kamaytirishda ijtimoiy omillarning roli // Zamonaviy huquq tadqiqotlari jurnali. – Toshkent, 2022. – № 2. – B. 54-59.
5. Adler F. Sisters in Crime: The Rise of the New Female Criminal. – New York: McGraw-Hill, 1975. – 287 p.

